

# **BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI**

## **IQTISODIY TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISHDA XALQARO TAJRIBALARINI QO'LLASH MASALALARI**

*Qlichev Baxtiyor Pardayevich*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

*"Moliyaviy tahlil" kafedrasи*

e-mail: b\_qilichev@tfi.uz

ORCID: 0000-0001-6938-7897

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada korxonalar operatsion faoliyati tahlilini tashkil etish xalqaro amaliyotda qo'llaniladigan CALS texnologiyalarining mohiyati ochib berilgan. Ushbu texnologiyani qo'llashning amaliy jihatlari va xususiyatlari yoritilgan.

**Tayanch so'zlar:** operatsion faoliyat, iqtisodiy integratsiya, CALS texnologiyalari, operatsion sikl, tezkor axborotlar

**Abstract:** This article explores the essence of CALS technologies in organizing the analysis of the operational activities of enterprises used in international practice. The practical aspects and features of the application of this technology are also covered.

**Key words:** operational activity, economic integration, CALS technologies, operational cycle, operational information

Erkin intensiv raqobat va iqtisodiy munosabatlar mavjud bugungi sharoitda xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati barqarorligi va daromadlarni oshirishda amalga oshiriladigan iqtisodiy tahlil ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar operatsion faoliyati tahlilida xo'jalik yurituvchi subyektlarning mehnat vositalari, predmetlari va mehnat resurlarining ta'minoti, ishlab chiqarish, sotish va natijaga ega bo'lishdagi umumiy tizim o'r ganiladi. Iqtisodiy integratsiya jarayonlari tezlashgan davrda har bir davlatdagi korxonalar o'z faoliyatlarida eksport va import operatsiyalari orqali xarajatlarni optimallashtirish bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilishlari mumkin. Juhon miqyosida ishonchli biznes hamkorlarga ega bo'lish uchun har bir korxonalar barqaror ijobjiy moliyaviy holatni ta'minlash, assosiy daromad keltiruvchi operatsion faoliyat samaradorligi bo'yicha muntazam tahliliy ishlarni amalga oshirib borishi zarur.


Kichik va o'rtalig'li biznesda, xususiy va boshqa tadbirkorlik turlarida mahsulot ishlab chiqarishni oshirish hamda sotish hajmini kengaytirish bo'yicha tahliliy ishlarda tezkor tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirib, talab yuqori bo'ladigan mahsulotlarni (xizmatlar) ishlab chiqarish va qisqa fursatda bozorga yetkazib berish muhim hisoblanadi. Tezkor amalga oshiriladigan mazkur tahliliy tadbirlar orqali mahsulot bahosi va tayyor mahsulotlar qoldig'inining oshib ketmaslik choralarini ta'minlanadi. Yillik aylanmasi yuqori bo'lgan ishlab chiqarish korxonalarida esa mahsulot assortimentini o'zgartirish yangi

## **BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI**

mahsulotlarni ishlab chiqarish, mahsulotda texnik jihatdan tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish biroz vaqt talab qiladigan murakkab jarayon hisoblanadi. Shuning uchun yirik xo'jalik yurituvchi subyektlarida mahsulot ishlab chiqarish hamda mahsulotlarni sotish o'rtaqidagi bog'liqlikni ta'minlash, filiallar, ishlab chiqarish sexlari va javobgarlik markazlari o'rtaqidagi operativ, ishonchli va shaffof axborot almashinuvini tashkil etish, jamoat nazorati, ilmiy va amaliy asoslangan optimal boshqaruva qarorlari orqali tayyor mahsulotlar qoldig'ini kamaytirishga o'rta va uzoq muddatli tahliliy ishlar orqali erishish mumkin.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda operatsion faoliyati asosiy daromad olib keluvchi faoliyat turi hisoblanganligi tufayli, ushbu faoliyat tahlilini to'g'ri tashkil etilishi, tahlilning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, operatsion faoliyat tahlilini tashkil etish yo'nalishlarini to'g'ri belgilab olish olinadigan tahlil natijalariga bevosita ta'sir etadi. Har tomonlama asoslangan va to'g'ri tanlangan yo'nalishda operatsion faoliyat tahlilini tashkil etish korxonalarda xarajatlarni oqilona sarflanishi, mahsulot ishlab chiqarish maqbul hajmlarini belgilash, ishlab chiqarilgan mahsulotlarning to'liq realizatsiyasiga erishish, ijobjiy moliyaviy natijalarga erishish orqali korxonalar foydasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Rivojlangan davlatlar amaliyotida operatsion faoliyat tahlilini tashkil etishda tahlilning maqsadi, muddati, kompaniyalar faoliyat olib boradiga tarmoq va sohalar xususiyatidan kelib chiqib turli yo'nalishlarda amalga oshiriladi (1-rasm).



**1-rasm. Xorijiy amaliyotda operatsion faoliyat tahlilini olib borish yo'nalishlari<sup>1</sup>.**

<sup>1</sup> Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

## **BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI**

CALS texnologiyalari (*Continuous Acquisition and Lifecycle Support* — mahsulotning operatsion sikli va ta'minot jarayonini uzuksiz axborot bilan ta'minlash) 1986-yilda AQSH harbiy sanoati uchun ishlaydigan kompaniyalarda yirik loyihalarni amalga oshirishda operatsion faoliyat samaradorligini tezkorlik va yuqori mehnat unumdarligi asosida oshirish maqsadida joriy qilingan. 1990-yillarda SSSR ning parchalanishi va qurollanish poygasining tugashi natijasida CALS texnologiyalari iqtisodiyotning turli sohlarida samarali qo'llanila boshlandi. Avtomatlashgan boshqaruv tizimining rivojlanishi va iqtisodiyotga raqamli texnologiyalarning kirib kelishi CALS texnologiyalarining samaradorligini yanada oshirib berdi.

Bugungi kunda korxonalar faoliyatini yanada rivojlantirish, iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish va bozordagi talabni tezkorlik bilan qoplash maqsadida tezkor axborotlar almashinushi asosida qurilgan CALS texnologiyalari AQSH, Yevropa davlatlari, Yaponiya, Xitoy va Rossiyada faoliyat olib borayotgan korxonalarda samarali qo'llab kelinmoqda.

CALS texnologiyalari asosini mahsulotning operatsion siklini zamonaviy texnologiyalar va tezkor axborot almashinushi asosida qisqartirish tashkil etadi. Bundan tashqari tezkor axborotlar asosida mahsulot ishlab chiqarishning strukturaviy o'zgarishlarini amalga oshirishda, yangi mahsulot ishlab chiqarishning loyihalash bosqichida CALS texnologiyalarini qo'llash yuqori samara keltiradi. CALS texnologiyalarini qo'llashning ilg'or sohalari sifatida:

- loyihalarni amalga oshirish, qayta loyihalash va loyihalarni boshqarishda;
- muqobil loyihalarni ishlab chiqishda;
- ishlab chiqarish bosqichlaridagi ma'lumotlarni tezkor almashinuvida;
- boshqaruv qarorlarini tizimli qo'llab-quvvatlashda
- logistik xizmatlar samaradorligini oshirishda;
- mahsulot, ish va xizmatlarni xalqaro va milliy standartlarga muvofiqligi ta'minlash kabilarni keltirish mumkin.

AQSH iqtisodiyotida 1990-yildan boshlab CALS texnologiyalarini qo'llanilishi natijasida 2010-yillarga kelib sanoatda:

- to'g'ridan-to'g'ri loyihalash xarajatlarining 10% dan 30% gacha qisqarishiga;
- yangi mahsulotlarni yaratish va ishlab chiqarish vaqtining 40% dan 60% gacha qisqarishiga;
- bozorga yangi mahsulot taqdim etish vaqtining 25% dan 75% gacha qisqarishiga;
- mahsulot tarkibidagi brak mahsulot ulushining 20% dan 70% gacha qisqarishiga;

## **BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI**

- mahsulotning texnik va esplutatsion hujjatlariga qilinadigan xarajatlarning 40% gacha qisqarishiga erishilgan<sup>2</sup>.

Bugungi kunda Sobiq SSSR tarkibidagi davlatlardan Rossiya, Belarus, Gruziya, Ukraina iqtisodiyotida davlat korxonalari va katta korxonalarda faoliyat samaradorligini ta’minlash va mahsulot raqobatbardoshligini ta’minlash maqsadida CALS texnologiyalari qo’llanilmoqda. Jumladan, 2018-yilda Belarus Respublikasida ushbu texnologiya samaradorligini oshirish va amaliyotga samarali qo’llash bo‘yicha “CALS texnologiyalari” nomli ilmiy-texnikaviy davlat Dasturi qabul qilingan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, xalqaro va milliy amaliyotda operatsion faoliyat tahlilini tashkil etishda yuqoridagi kabi turli texnologiyalar va metodlar mavjud. Iqtisodiy tahlilning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, ushbu metodlar alohida yoki birgalikda amalga oshirilishi mumkin. Bunda asosiy e’tibor operatsion faoliyat tahlilini amalga oshirishda aniqlanadigan ko‘rsatkichlar to‘g‘ri tanlanishiga qaratilishi lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Кличев, Б. (2021, май 21). Маҳсулот (иш, хизматлар) га баҳо шакллантириш масалалари. Бухгалтерия ҳисоби ва аудиторлик фаолиятини халқаро стандартлар асосида ташкил этишнинг долзарб масалалари. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10647005>
2. Кличев Бахтиёр Пардаевич. (2024). ИШЧИЛАР ҚЎНИМСИЗЛИГИ ТАҲЛИЛИ. World Scientific Research Journal, 23(2), 287–294. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3042>
3. Кличев, Б. (2021, май 21). Ўзбекистонда ишбилармонлик фаоллиги таҳлилини ташкил этиш. Бухгалтерия ҳисоби ва аудиторлик фаолиятини халқаро стандартлар асосида ташкил этишнинг долзарб масалалари. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10646960>
4. Кличев, Б. (2021, май 5). Ишбилармонлик фаоллиги индекси таҳлили. Biznes-tahlilni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari va istiqbollari. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10647021>
5. Кличев, Б. (2022, сентябрь 16). Операцион фаолият таҳлилида харидор танлови асосида маҳсулотга баҳо шакллантириш масалалари. Инновацион ёндашув асосида молиявий ҳисботнинг халқаро стандартларини жорий этиш. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10647059>
6. Кличев, Б. П. (2022). Маҳсулот сотиши ҳажми таҳлилини такомиллаштириш масалалари. Science and Education, 3(5), 1719-1728.
7. Кличев, Б. (2022). КРІ ТИЗИМИ АСОСИДА МОДДИЙ РАҒБАТЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ ТАҲЛИЛИ. Архив научных исследований, 2(1). извлечено от <https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/1343>

<sup>2</sup> S. A. Kasperovich, G. O. Konovalchik. Organizatsiya proizvodstva i upravleniye predpriyiyem. – Minsk : BGTU, 2012. – 344 s.

## **BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI**

8. ҚЛИЧЕВ, Б. П. (2022). ИШБИЛАРМОНЛИК ФАОЛЛИГИ ТАҲЛИЛИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ. Архив научных исследований, 2(1). извлечено от <https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/373>
9. Қличев Бахтиёр Пардаевич, (2023). Корхоналарда маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажми таҳлилини такомиллаштириш масалалари. Issues of improving the analysis of the volume of production at enterprises. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 13(7), 42–49. Retrieved from <http://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/2782>
10. Пардаевич, Қ. Б. (2023). Хўжалик юритувчи субъектларда операцион цикл таҳлилини ташкил этиш масалалари. *World Scientific Research Journal*, 16(1), 196-203.
11. Қличев, Б. П. (2022). Маҳсулот сотиш ҳажми таҳлилини такомиллаштириш масалалари. *Science and Education*, 3(5), 1719-1728.
12. Қличев Бахтиёр Пардаевич, (2023). Корхоналарда маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажми таҳлилини такомиллаштириш масалалари. Issues of improving the analysis of the volume of production at enterprises. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 13(7), 42–49. Retrieved from <http://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/2782>
13. Пардаевич, Қ. Б. (2023). Хўжалик юритувчи субъектларда операцион фаолиятида ишлаб чиқариш ҳажмини ифодаловчи кўрсаткичлар таҳлили. *Scientific Journal of “International Finance & Accounting*, 2, 2181-1016.
14. Қличев, Б. П. (2022). Ишбилармонлик фаоллиги таҳлилини ташкил этиш йўналишлари. *Архив научных исследований*, 2(1). извлечено от <https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/373>
15. Maxmatqulova H.G'. "Properties of borel sets" . "Innovation in technology and Sciense Education", Scientific journal.2023. Vol.2.№14. P.169-175.
16. Ochilov, O. I. (2022). INVESTMENT QUALITY ANALYSIS IN BUSINESS ENTITIES. Архив научных исследований, 2(1).
17. Ochilov, O. (2022). ИНСОН КАПИТАЛИГА ИНВЕСТИЦИЯЛАР ВА БУХГАЛЬТЕРИЯ ҲИСОБИ. Архив научных исследований, 2(1).
18. Ochilov, O. I. (2019). DEVELOPMENT OF METHODOLOGY FOR RECOGNIZING REVENUES FROM INVESTMENTS. In Бухгалтерский учет, анализ и аудит: история, современность и перспективы развития (pp. 96-99).
19. Ochilov, O. I. (2019). THEORETICAL BASES OF INVESTMENTS ACCOUNTING. In БУХГАЛЬТЕРСКИЙ УЧЕТ: ДОСТИЖЕНИЯ И НАУЧНЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ XXI ВЕКА (pp. 209-214).
20. Ochilov, O. I. (2018). METHODOLOGICAL ASPECTS OF FINANCIAL AND ECONOMIC PERFORMANCE ANALYSIS OF

## **BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI**

BUSINESS ENTITY. In АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА, СТАТИСТИКИ И НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ (pp. 26-34).

21. Юлдашев, Ж. А. ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА МИЖОЗЛАР БИЛАН МУНОСАБАТЛАР ҲОЛАТИНИ БАҲОЛАШ УСУЛИНИ ТАКОМИЛАШТИРИШ.
22. Qlichev Baxtiyor Pardayevich. (2024). Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda CVP-tahlilni tashkil etishning muammoli jihatlari. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 4 (2024), 754–759
23. Klichev Bakhtiyor Pardayevich. (2024). Problematic Aspects of Organizing Cvp-Analysis in the Enterprises of Uzbekistan // Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 5(5), 241–248. Retrieved from <https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/4906>
24. Kholdorov Sardor Umarovich. (2024). LIQUIDITY RISK MANAGEMENT IN THE BANKING SECTOR: CHALLENGES, STRATEGIES AND IMPLICATIONS. *World Scientific Research Journal*, 26(3), 122–131. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3255>
25. Qlichev Baxtiyor Pardayevich. (2024). Korxonalarda operatsion faoliyat samaradorligini tahlil qilish masalalari. *World Scientific Research Journal*, 26(3), 86–94. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3251>
26. Qlichev, B. (2024). Korxonalar faoliyatini rivojlantirishda operatsion faoliyat tahlilining zarurligi. Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'naliishlari, Konferensiya to‘plami. Termiz, O‘zbekiston. 15-iyun 2024-yil. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11909171>
27. Yakupbaevich, I. J. ., Abrarovich, Y. J. , Akhtamovich, H. S. ., & Bekmurodova. (2023). COMMERCIAL BANKING, CREDIT OPERATIONS, PROVISION OF COLLATERAL, ASSESSMENT MECHANISMS. *FAN, TA’LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIIA JURNALI | JOURNAL OF SCIENCE, EDUCATION, CULTURE AND INNOVATION*, 2(4), 6–13. Retrieved from <https://mudarrisziyo.uz/index.php/innovatsiya/article/view/251>
28. Abdullayev, A., & Djamatov, H. (2023). ORGANIZATIONAL STRUCTURE OF THE INTERNAL CONTROL SERVICE FOR THE FULFILLMENT OF TAX OBLIGATIONS OF ENTERPRISES. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 8(4), 297-307.
29. Xudoyorov, O. O. (2023). Bank daromadlarini oshirishda masofaviy bank xizmatlarini tutgan o ‘rni.
30. Odilovich, K. O. (2024). IMPACT OF REMOTE BANKING SERVICES ON BANK INCOME. *International Journal of Education, Social Science & Humanities*, 12(6), 82-86.

## **BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI**

31. Majidov, J. K. (2019). Ways of improving management of credit portfolio at commercial banks. *International Journal of Research in Social Sciences*, 9(3), 725-736.
32. Мажидов Ж. (2024). Тижорат банклари активлар портфелларининг сифатини ошириш бўйича хориж тажрибаси ва унинг ўзига хос хусусиятлари. (2024). *Ustozlar Uchun*, 1(4), 1463-1467. <https://pedagoglar.org/index.php/02/article/view/3878>

